

Qizlar davrasi - gullar davrasi

Qizlarni bahorga qiyoslashadi. Faqat bahorgina o'zbek qizlarida bor go'zallikni takrorlaydi. "Yer resurslarini boshqarish" fakulteti talaba-qizlari joylashgan 4 talabalar turar joyida bo'lib o'tgan "Qizlar davrasi" bahorning ilk darakchilari - boychechaklar bazmini eslatdi. Nozik jussalariga yarashgan, chiroyli milliylik ufurib turgan kiyimlarni kiyib olishgan, sochlari o'zlariga yarashig'lik turmaklangan qizlar - bu fakultetimizning eng faollari - epchillig-u chaqqonlikda, pazandalikda, zukkolik va bilimda o'zlarining boshqalardan ustun ekanliklarini bildirish maqsadida bellashdilar.



Ushbu tadbirida qizlarimizni munosib baholab borish maqsadida universitet xotin-qizlar kengashining a'zolari R.Qodirova, M.Muxamedova, N.Azizovalar hakamlar hay'ati sifatida ishtirok etdi. Ko'rik-tanlovda talaba-qizlar 3 ta shart bo'yicha bellashdilar. Ko'rik-tanlovning birinchi sharti - har bir qizimiz o'zlarini tanishtirdilar. Tanishtiruvni qizlarimiz qoyillatib bajardilar. Qizlarning notiqlik mahorati, she'riy satrlarni maromiga yetkazib ifoda etishlari tomoshabinlarning olqishlariga sazovor bo'ldi. Ikkinchi shart erkin mavzu bo'lib, har bir qizimiz o'z qiziqishlaridan kelib chiqib, ayrimlari she'r aytishdi, ba'zilari raqsga tushishdi yana birlari qo'llarida dutor olib, qo'shiq aytib, barcha yig'ilganlarni xushnud etishdi. Uchunchi shart - pazandalik sharti bo'lib, bu shart bo'yicha ham qizlar o'zlarining bor mahoratlarini ishga soldilar. Bunda har bir qizimizni bahoriy taom chuchvarani tez chiroyli va ko'p tugush bo'yicha bellashishdi. Taqsimchalarga solinib, biri-biridan chiroyli tugulgan chuchvaralar qizlarning yuksak dididan darak berib turardi.



- Bunday tadbirlar qizlarimizning har tomonlama barkamol, milliy urf-an'alarimizdan boxabar voyaga yetishlarida katta ahamiyatga ega, - deydi tadbirda so'zga chiqqan universitet xotin-qizlar kengashi a'zosi R.Qodirova. - Qizlarimizning sharqona odobi, ibo-hayosi, momolar udumlaridan xabardorliklari ularning kelgusida yaxshi turmush o'rtog'i, oila bekasi, ona bo'lib voyaga yetishlari, ular qurajak oila jamiyatimizning mustahkam poydevoriga munosib hissa qo'shishidan darakdir deb o'z fikrlarini bildirib o'tdi. Biz esa ushbu tadbirni tashkillashtirgan fakultet dekani Sh.Narbaev, Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan muovini H.Eshova, fakultet xotin-qizlar kengashi raisi Z.Xafizova, fakultet tyutorlari D.Xursandova, M.Vafoiva, S.Ibragimovalarga o'z minnatdorchiligimizni bildiramiz. YeRB fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan muovini Hurriyat Eshova axboroti

Universitet matbuot xizmati